



journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

UNDERGROUND WATERS OF THE NATURAL GEOGRAPHICAL REGION OF MIRZACHOL AND THEIR WAYS

Marufjan Ubaydullayev

Master's student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Mirzachol natural geographical region, underground waters, springs, stream valleys, artesian wells, absorption of water flows, groundwater depth, biological drainage.

Received: 12.12.22

Accepted: 14.12.22

Published: 16.12.22

Abstract: This article describes the current state of groundwater in the natural geographical region of Mirzachol, the factors affecting it, and ways of rational use.

MIRZACHO'L TABIIY GEOGRAFIK RAYONINING YER OSTI SUVLARI VA ULARDAN YO'LLARI YO'LLARI

Ma'rufjon Ubaydullayev

Magistratura talabasi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mirzacho'l tabiiy geografik rayoni, yer osti suvleri, buloqlar, soy vodiylari, artezian quduqlar, suv oqimlarining singishi, grunt suvlar chuqurligi, biologik drenaj.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mirzacho'l tabiiy geografik rayoni yer osti suvlarining hozirgi holati va ularga ta'sir etuvchi omilar hamda oqilona foydalanish yo'llari yoritilgan.

ПОДЗЕМНЫЕ ВОДЫ ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ОБЛАСТИ МИРЗАЧОЛ И ИХ ПУТИ

Маруфжон Убайдуллаев

студент магистратуры

Джиззакский государственный педагогический университет

Джиззак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Мирзачельский природно-географический подземные воды, родники, долины ручьев, артезианские скважины, поглощение водных потоков, глубина залегания грунтовых вод, биологический дренаж.

Аннотация: В данной статье описывается современное состояние подземных вод в природно-географическом районе Мирзачол, факторы, влияющие на него, и пути рационального использования.

KIRISH

Mirzacho'l tabiiy geografik rayoni yer osti suvlari umumiy suv resurslarining bir qismi sifatida xalq xo'jaligi taraqqiyotida muhim axamiyatga ega. Yer osti suvlardan koriz, quduq va buloq suvlari sifatida ota-bobolarimiz qadimdan foydalanib kelmoqda.

Mirzacho'l tabiiy geografik rayoni hududidagi yer osti suvlari uning tabiiy sharoitiga, xususan litologik tarkibi va relyefiga bog'liq holda quyidagi uchta mintaqada (zonada) hosil bo'ladi: tog' mintaqasi, tog' oldi va tog' oralig'idagi mintaqqa, cho'l (tekislik) mintaqqa.

ASOSIY QISM

Tabiiy geografik rayonning janubi-sharqiy hududlarida joylashgan Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'irlarida ham ko'plab buloqlar uchraydi. Bu buloqlarning suvi chuchukdir. Buloqlarning juda ko'pchiligi daryo vodiylari va soylarda tarqagan. Shu bilan birga suv sarfi ko'p bo'lмаган buloqlar suv ayirg'ich yonbag'irlarida, tog' yonbag'irlarining pastki qismida uchraydi. Buloqlarning tarqalishi geomorfologik (relyef) komplekslariga bog'liq bo'lib, balandlik (vertikal) zonallik qonuniyatiga bo'ysunadi. Masalan, Zomin tog'larining tik yonbag'irli o'rtacha balandliklardagi geomorfologik komplekslardagi buloqlar sersuv va juda ko'p bo'lib past tog'li geomorfologik komplekslarda esa buloqlar uncha ko'p emas, ba'zan esa qurib qoladi. Shuni aytish kerakki, Zomin milliy tabiat bog'inining ayrim joylarida daryo vodiylari yoki soylarida yer osti suvlari juda katta maydonlarda yer betiga chiqib, o'tloq botqoqli komplekslarni hosil qiladi. Bunday joylarni ko'pincha "Shibar", ya'ni "Katta Shibar", "Kichik Shibar" deb ataydilar. Ana shunday yer osti suvlarining yer betiga chiqishi natijasida hosil bo'lgan gidrogeologik komplekslar Zominsuv va Qashqasuv soy vodiylarida ko'p uchraydi.

Turkiston tog'lari shimoliy yonbag'irlarida hosil bo'lgan yer osti suvlari shimolga tomon harakatlanadi. Yer osti suvlarining bunday harakatlanishi hisobiga, Zomin va Dashtobod shaharlari atrofida yer osti suvlarining katta zaxirasi to'planadi. Ushbu hududlarda yer osti suvlardan, qishloq xo'jaligi maqsadida foydalanish uchun 100 dan ziyod artezian quduqlari qazilganligini va hozirgi kunda ham artezian quduq qazish ishlar davom etayotganligini ko'ramiz. Natijada, yer osti suvlarining sathi keskin ravishda pasayishiga olib kelmoqda.

Hududning yer osti suvlari Turkiston tog'larning shimoliy yonbag'ri yer osti suvlari bilan bir oqimga egaligini, yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Bu bog'liqlik ta'sirida Turkiston tog'larining shimoliy yonbag'ri o'simliklari (archalar) degradatsiya (cho'llanish) ga uchramoqda. Shu sababli

ham, hududda yer osti suvlardan foydalanishning limitini ishlab chiqish va unga qat’iy ravishda amal qilish lozimdir.

Turkiston tog‘larining janubiy yonbag‘ri ham yer osti suvlariga juda boydir. Yer osti suvlarining asosiy oziqlanish manbai erigan qor suvlari va yomg‘irlardir. Yer osti suvlarining hosil bo‘lish sharoiti kuchli yemirilgan va yoriqlarga to‘la bo‘lgan paleozoy tog‘ jinslaridir. Tog‘ tizmalari va yonbag‘irlari silur, ayniqsa, devon davrining ohaktoshlaridan tuzilgan. Bu tog‘ jinslari tektonik yoriqlar va nurash yoriqlaridan iborat. Shuning uchun past va o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar asosan yer osti suvini yig‘uvchi manba hisoblanadi.

Kuchli yoriqlardan iborat bo‘lgan va karst jarayonlari taraqqiy etgan ohaktoshlarida juda ko‘p doimiy harakatdagi buloqlar paydo bo‘lgan. Ularning suv sarfi 50-70 l/sek yetadi. Buloqlarning sersuvligi va ularning sarfi ko‘proq tektonik yoriqlar bilan bog‘liq. Masalan, tektonik yoriqlar kuchli bo‘lgan ohaktoshlarda buloqlarning suv sarfi 40-50 l/sek ga oshadi. Tektonik yoriqlar kam bo‘lgan joylarda esa buloqlarning suv sarfi 20-30 l/sek ga ham yetmaydi. Ayrim buloq suvleri chiqadigan joylar ziyoratgohlarga aylantirilgan. Buloqlari bor ziyoratgohlarga Sa’d ibn Abu Vaqqos, O’smat ota va Novqa ota kabi ziyoratgohlarni misol keltirishimiz mumkin. Buloqlar ham ziyoratgohlar nomi bilan bir xil nomlanadi.

G‘allaorol tumanining Avliyo qishlog‘ida joylashgan Sa’d ibn Abu Vaqqos bulog‘ida O‘zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan relikt qorabaliqlarni ko‘rish mumkin. Ziyoratgoh bo‘lganligi tufayli ham buloq va undagi baliqlarga mahalliy aholi tomonidan umuman zyon yetkazilmaydi. Mulohaza qiladigan bo‘lsak, ziyoratgoh hududida joylashmagan buloqlar, ziyoratgoh hududida joylashgan buloqlarga nisbatan ko‘p zyon ko‘radi. Bu oddiy haqiqat bo‘lib, mahalliy aholi doimo ziyoratgohlarga nisbatan munosabati yaxshi bo‘lib kelgan. Ba’zi bir pessimist kishilar tomonidan buloqlar oldidagi ziyoratgoh qabrlar o‘ylab topilgan degan fikrni aytadi. Biz buloqlar oldidagi ziyoratgoh qabrlarni haqiqatdan ham bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi tekshirish emas, balki boshqa buloqlar oldida ham shunday ziyoratgohlar borligi yoki odamlar ongiga har bir buloq ziyoratgohdir degan fikrni singdirishimiz lozimdir. Buloqlarga nisbatan odamlarning fikrini o‘zgarishi, davlat tomonidan buloqlarni muhofaza qilish zaruriyatini ham goldirmaydi.

Nurota tog‘ va tog‘ oldi tekislarida yer osti suvlarining hosil bo‘lish jarayonlari xuddi butun O‘rta Osiyo tabiiy o‘lkasidagidek vertikal zonallik qonuniyatiga bo‘ysinadi. Hosil bo‘lish sharoitiga va ma’lum geologik-litologik komplekslarga mansubligi hamda sirkulsiya (harakat qilish) xususiyatiga qarab ularni quyidagi tiplarga ajratadilar; Nurota tog‘ tizmasidagi paleozoy tog‘ jinslari yoriqlaridagi yer osti suvlar, tog‘ oldi prolyuvial tekisligidagi yer osti suvlar hamda soylarning terrasalashgan allyuvial tekisligidagi yer osti suvlariga bo‘linadi.

Nurota tog‘ tizmasidagi paleozoy tog‘ jinslari yoriqlaridagi yer osti suvlar, paleozoy jinslarning juda ham yoriqlarga boyligi, tektonik jihatdan buzilganligi va erozion parchalanganligi, atmosfera yog‘in-sochinlari hisobidan yer osti suvlarini to‘plash uchun juda qulay sharoit tug‘dirgan. Yer osti suvlarini yer yuzasiga bevosita yoriqlardan yoki yoriqlarni bekitib yotgan delyuvial tog‘ jinslari orasidan chiqadi. Paleozoy tog‘ jinslarning suvga boyligi hamda sersuvligi ko‘p jihatdan tog‘ jinslarning litologik tarkibiga bog‘liq. Sersuv, suvni ko‘p saqlovchi tog‘ jinslari-kuchli parchalangan, yoriqlarga boy ohaktoshlardir. Yoriqlarga boy va karst hodisasi rivojlangan ohaktoshlar bilan doimiy oquvchi sarfi 10-35 l/sek bo‘lgan buloqlarni paydo qiladi. Paleozoy tog‘ jinslari yoriqlaridagi suvlar ko‘p hollarda soylarning to‘yinshida muhim rol o‘ynaydi.

Tog‘ oldi prolyuvial tekisligi uchun tog‘li hududlardan, yer osti oqimi bo‘lgan tranzit yer osti suvlarini hamda atmosfera suvlarining va tog‘lardan soy bo‘ylab oqib keluvchi suv oqimlarining singishi (filtratsiyasi) xarakterlidir.

Tog‘ oldi tekisliklarining gidrogeologik sharoiti ko‘pgina omillarga bog‘liq xolda rivojlanadi, ya’ni geologik tuzilishi, tog‘ jinslarning litologik tarkibi, balandligi va iqlim sharoiti kabi omillarga bog‘liqdir. Prolyuvial tog‘ jinslarining yer osti suvlarini yuzasi tekis tarqalgan bo‘lib, ularning qiyaligi yer yuzasining nishabligi bilan muvofiq bo‘ladi. Yer osti suvi geomorfologik sharoitiga qarab har xil chuqurlikda yotadi. Tog‘ oldi zonasida yer osti suvlarini konussimon chiqindilar keng tarqalgan va prolyuvial yotqiziqlar saralanmagan joylarda chuqurroqda joylashgan. Tog‘dan uzoqlashgan sari tog‘ oldi tekisliklarning nishabligi keskin pasayadi va litologik tarkibidagi lyossimon suglinoklar ko‘payadi. Natijada, tog‘ jinslarining suvni o‘tkazish qobiliyati pasayadi va yer osti suvlarini yer betiga yaqinlashadi, xatto ayrim joylarda yer betiga buloq sifatida chiqadi.

Soylarning terrasalashgan allyuvial tekisligidagi yer osti suvlarning oziqlanish manbai asosan daryo o‘zani suvlaridan, ariqlardagi suvlarning singishi (filtratsiya), o‘rab olgan tog‘ oldi hududlaridan va tog‘lardan keladigan yer osti suv oqimi hisoblanadi. Xozirga qadar bu hududdagi yer osti suvlarining hosil bo‘lish jarayonlarining miqdoriy o‘lchamlari yo‘q. Soylarning allyuvial terrasalashgan yer osti suvlarining chuqurligi hamda suv rejimi bevosita suvning sarfi bilan bog‘liq. Yer osti suvining maksimal yuzasi soylarning suv sarfining keyin, ya’ni aprel oyida kuzatiladi. Yer osti suvining oqimi asosan chuqurligi 2-3 m dan 5-6 m gacha bo‘lgan qatlamlarda soylar oqadigan vodiyning markaziga va quyi oqimiga qarab yo‘nalgan. Yer osti suvlarini kimyoviy tarkibi bo‘yicha gidrokarbonat tipiga mansub bo‘lib, birmuncha chuchukdir.

Mirzacho‘l o‘zlashtirilganga qadar grunt suvlar chuqurligi Jizzax konussimon yoyilmasining yuqorisida 15-20 metr, o‘rta qismida 5-10 metr, quyi qismida 2-3 metrni tashkil qilgan (Pankov, 1957). Mirzacho‘lda 1960 yillardan boshlab yerlarning o‘zlashtirilishi yer osti suvlarini sathining ko‘tarilishiga olib keldi. Bu hududlarda sug‘orma dehqonchilik boshlangach butun Mirzacho‘l

hududi singari grunt suvlar sathi keskin ko‘tarildi, grunt suvlar sathi joy relyefiga bog‘liq holda 3-5 metr ko‘tarilib ketdi va katta maydonlarda tuproqlar sho‘rlanishi kuchaydi. Tuzkon ko‘lining sharqiy qismlarida grunt suvlar chuqurligi ilgari 3-7 metr bo‘lgan bo‘lsa, hozir 1,5-2,5 metrni tashkil qiladi. Suvning minerallashish darajasi ham tog‘ yonbag‘irlari yaqinida juda kam (0,3-0,5 g/l) bo‘lib, Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi tomon u 3-5 g/l dan 10 g/l gacha oshib boradi.

Mirzacho‘l tekisligida yer osti suvlari sathining so‘nggi yillarda keskin ko‘tarilishiga sug‘orma dehqonchilik bilan bir qatorda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining ham ta’siri bo‘lmoqda. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ta’sirida yer osti suvlarning o‘zgarishini Mirzacho‘l tekisligi hududida joylashgan tumanlar misolida tahlil qilingan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Mirzacho‘l tekisligi sug‘oriladigan yerlarini holati

Tumanlar nomi	Sug‘oriladigan yerlarning yer osti suvlar sathi bo‘yicha taqsimlanishi (ming ga)						
	Umumi y maydon	1 m, gacha	1,0-1,5	1,5-2,0	2,0-3,0	3,5	5,0 dan past
Arnasoy	33,526	-	0,06	1,040	32,426	-	-
Mirzacho‘l	33,037	-	0,31	0,93	31,347	0,44	-
Zafarobod	29,271	-	0,24	0,55	26,731	1,50	0,25
Do‘stlik	36,038	-	0,09	0,815	35,123	0,01	-
Paxtakor	28,725	-	0,01	1,945	26,710	0,06	-
Sharof Rashidov	35,005	0,005*	0,25	0,397	24,236	9,98	0,14
Jami:	195,602	0,005	0,97	5,677	176,57	11,99	0,39

*Izoh: Zovur – drenajlarning ishdan chiqishi tufayli suv sathining ko‘tarilishi

Mirzacho‘l tekisligida yer osti suvlari sathining ko‘tarilishi, tekislikdagi moddalarning almashinishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Mirzacho‘l tekisligida yer osti suvlarining yaqinligi va tuproq sho‘rligining yuqoriligi tufayli qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorlik pasayib ketmoqda. Shu sababli ham botiq muhitiga moslasha oladigan va yer osti suvlarini ko‘p bug‘lantira oladigan o‘simglik turlaridan, ya’ni biologik drenaj (tabiiy drenaj) usulidan foydalanish lozimdir.

XULOSA

Biologik drenaj deganda ortiqcha yer osti suvlarini tabiiy o‘simgliklar qoplami - daraxtlar, o‘rmon mintaqalari, ekinlar yordamida chiqarib tashlashini tushunamiz. Biologik drenaj tuproq sharoitini yaxshilashga, zaxini qochirishga xizmat qiladi, yer osti suvlarining sathina pasaytiradi.

Barglari orqali ko‘p suv bug‘latish qobiliyatiga ega bo‘lgan tol, terak, qayrag‘och kabi daraxtlar va beda singari qishloq xo‘jalik ekinlari biologik drenaj vazifasini bajaradi. Masalan, vegetatsiya davrida bir tup tol va terak $20-100\text{ m}^3$ gacha suv bug‘latadi, sug‘oriladigan maydonning 1,5 % ini qoplagan daraxtzor drenaj chiqaradigan tuzlarning 15 % ini olib chiqadi. Beda (yoshi, zichligi, sizot suvlari sathining chuqurligi, tuproqning granulometrik tarkibi va boshqa xarakterlariga qarab) $4-20\text{ m}^3/\text{ga}$ suv sarflaydi. Bu miqdorning 78 % qismi yer osti suvlari hisobiga to‘g‘ri keladi. Yoz fasilda o‘simgiliklar suvini ko‘p sarflaydigan davrda bedazorlardagi yer osti suvlari sathi ekinzor dalalaridagiga nisbatan 50-70 sm chuqurroqda bo‘ladi. Mirzacho‘l tekisligining o‘zlashtirilgan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash maqsadida terak, tol, chinor, oq akatsiya va boshqa o‘simgiliklardan keng ko‘lamda foydalansa bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Alibekov L.A., Nishonov S.A. Природные условия и ресурсы Джизакской области. «O’zbekiston», 1978 y
2. Alibekov L.A. – Landshaftlarni muhofaza qilish. –T., «Fan», 1985 y
3. Hakimov Q.M., G`o`dalov M.R. Jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax, Sangzor 2006 y
4. G`o`dalov M.R., Yaxshiboyeva F. Suv resurslaridan rasional foydalanish (Zomin tumani misolida). –T., 2010 y
5. G`o`dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish. Muammo va yechimlar. Monografiya. «Ziyo nashr-matbaa»2021 y
6. Gudalov M.R., Janizakov I.S., Janizaqova G.M., Ways to develop Ecotourism in The Molguzar Mountains. The American Journal of applied Science. 2020, 11/10.